

## МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti  
“Maktabgacha ta’lim” fakulteti o`qituvchisi  
Alimbayeva Muqaddas Baxadirovna  
MAT 20/3 guruh talabasi  
Halimova Odina Dilshod qizi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish o'ziga xos psixologik xususiyatlari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar nutqini rivojlantirish yuzasidan tavsiyalar berilgan. Tarbiyachi-pedagoglarning nutq madaniyati va ijtimoiy psixologik xususiyatlari ham yoritib o'tilgan.

**Tayanch so'zlar:** tovush xususiyati, nutqning ifodalanishi, tovush, nutqiy nafas olish, nutq me'yori, tarbiyachining nutq madaniyati.

## PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF SPEECH DEVELOPMENT IN PRESCHOOL CHILDREN

**Abstract:** This article discusses the specific psychological features of speech development in preschool children. The article also provides recommendations for the development of children's speech in preschool education. The speech culture and social psychological features of educators are also covered.

**Keywords:** sound characteristics, speech expression, sound, speech breathing, speech norms, educator's speech culture.

Ta'lim-tarbiya ishlarini takomillashtirish, uni jahon andozalari darajasiga ko'tarish, fan sohasidagi yangiliklarni amaliy hayotga tatbiq etish muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Ayniqsa yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish, ularda fan asoslariga nisbatan bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov «Tarbiyachi – ustoz bo'lishi uchun boshqalarning aqlidrokini o'stirishi, ma'rifat ziyosidan bahramand qilishi, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun eng avvalo tarbiyachining o'zi aynan shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo'lishi kerak» – degan edi [1]. Ta'limning yangi modelida jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsni shakllantirishga e'tibor berilar ekan, psixologiya sohasining vazifalari ham malakali mutaxassislar sifatida o'zligini, o'z qobiliyatlari, individualligi, ya'ni shaxsiy fazilat, xislatlarini bilgan tarzda ta'lim-tarbiya faoliyatini oqilona tashkil etish va ijtimoiy foydali mehnatning barcha sohalarida iqtidorli kasb

sohibi sifatida faoliyat ko'rsata oluvchi shaxslarni tarkib toptirishdir. Maktabgacha yoshidagi bolalar nutqining rivojlanishi ularning faoliyati, muloqati bilan uzviy bog'liqdir. Bola jummalarning mazmuni va shaklidagi o'zgarish uning muloqat shakllari o'zgarishi bilan bog'liq bo'ladi. Ilk bolalik davriga xos situativ nutq ishchan muloqot shaklidan nosituativ bilishga yo'naltirilgan va nosituativ - shaxsiy muloqot shakliga o'tilishi bolalar nutqiga ma'lum bir talablarni qo'yadi. Bu talablar bola nutqining yangi-yangi tomonlarini, turli kommunikativ masalalarni hal qilishi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarni tarkib toptiradi. Bog'cha yoshidagi bolaning nutqi ijtimoiy aloqalarni o'rnatish funksiyasini bajara boshlaydi. Buning uchun esa bolada ichki nutq tarkib topishi, monologik xususiyat kasb etib borishi lozim bo'ladi. Maktabgacha yoshda bola nutqining rivojlanishidagi muhim xususiyat nutq tafakkur quroliga aylanishidan iborat. Bola so'z-lug'at boyligining o'sishida 2 ta muhim tomon - miqdor va sifat tomonlari mavjud. Lug'at boyligining miqdoriy o'sishi D. B. Elkoninning ko'rsatishicha, bevosita bolaning hayot sharoitlari va tarbiyalanish xususiyatlariga bog'liq. So'nggi yillarda u yoki bu yoshdagi bolalar nutqining lug'at tarkibini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarda avvalgi tadqiqotlarga nisbatan yuqoriroq miqdoriy ko'rsatkichlar aniqlandi. Jumladan, V. Loginaning ma'lumotlariga ko'ra 3 yoshga kelib, bola lug'atida 1200 ta so'z mavjud bo'ladi, 6 yoshli bolaning aktiv lug'ati esa 3000–3500 so'zni o'z ichiga oladi. Vaholanki, 40–60 yil oldin o'tkazilgan tadqiqotlarda 3 yoshli bolaning lug'ati 400–600 so'zdan, 6 yoshli bolaning aktiv lug'ati esa 2500–3000 so'zdan iborat deb ko'rsatilgan edi. Nutq madaniyati - bu, avvalo, tarbiyachida bo'lishi shart va majburiy sifatlardan hisoblanadi. Bu tarbiyachidagi nutqiy ko'nikma va nutqiy malakalarni hosil qiladi. Bu ko'nikma tarbiyachi faoliyatida takomillashib boradi, maxsus mehnat va mashqlar evaziga malaka oshiriladi hamda erishilgan muvaffaqiyatlar tufaylar tufayli qobiliyat va mahorat shakllanadi. Bolalar nutq madaniyatiga o'zbek adabiy tilini mukammal egallash asosida erishiladi. Buning uchun esa tarbiyachi adabiy qoidalarini bilish, badiiy adabiyot asarlarini doimiy o'qib borishi, she'rlar yod olishi va bolalar bilan suhbatlar o'tkazish muhimdir. Situatsion - ishchan muloqot shaklidagi bolalar leksikasi (nutqi) konkret predmetli vaziyat bilan bog'liq. Bu holat shunda ko'rinadiki, bolaning nutqida ot so'z turkumiga oid so'zlar ko'p bo'ladi. Sifat turkumidagi so'zlar yoki umuman uchramaydi, yoki buyumlarining faqat tashqi xususiyatlari: rangi, o'lchami (barcha sifatlarning 96,4 %) ni ifodalaydi. 98 % fe'llar faqatgina konkret predmetli harakatlarga nisbatan ishlatiladi. Bolalarning nosituativ - bilishga yo'naltirilgan (vaziyatga - situatsiyaga bog'liq bo'lmagan) muloqotida ular kattalardan har xil narsa va hodisalar haqida axborot olishga bog'liqlikdan ozod bo'ladi. Asta sekin atrof-olamdagi narsalarning turli xususiyatlarini aks ettiruvchi so'zlar zahirasi kengayib boradi. Jumladan, estetik xususiyatlarni ifodalovchi sifat turkumiga oid so'zlar (11,25 %) va emosional xususiyatlarni ko'rsatuvchi so'zlar (5 %) paydo bo'ladi, irodaviy va intellektual harakatlarni

anglatuvchi fe'l turkumidagi so'zlar (6,24 %) vujudga keladi. Nosituativ - shaxsiy muloqotda, bola odamlar o'rtasidagi munosabatlar haqida axborot olishga, o'zining fikrini kattalar fikri bilan taqqoslashga harakat qilar ekan, uning nutqida umumiy grammatik murakkablashish ro'y beradi. Sifat turkumidagi so'zlar quyidagi nisbatda bo'ladi: atributiv (tashqi xususiyatlarini ifodalovchi) - 69,80 %, estetik xususiyatlarni ifodalovchi sifatlar - 14,65 %, ahloqiy xususiyatlarni ifodalovchi sifatlar - 9,3 %. Irodaviy va intellektual harakatlarni ifodalovchi fe'llar ancha ko'payib, nutqida ishlatilayotgan barcha fe'llarning 9,76 %ni tashkil etadi. Agar maktabgacha yoshdagi ya'ni 3–7 yoshdagiboladan berilgan topshiriqda nutqiy faoliyatning elementi bo'lmish so'z bilan muayyan amallarni bajarish talab etilsa, masalan, gap tarkibidan so'zlarni ajratib olish vazifasi berilsa, S. N. Karpovaning tadqiqoti ko'rsatishicha, bolada unga aytilgan gap belgilaydigan vaziyatga orientir olishning ancha barqaror moyilligi kuzatiladi. Berilgan so'z tarkibida nechta so'z mavjud degan savolga bolalar gapni "boshdan oyoq" qaytadan takrorlaydi. Masalan, "Koptok yumalab ketdi" degan gap berilsa, bola bu gapda bitta so'z "Koptok yumalab ketdi" degan so'z borligini aytadi. Ayni 5–9 yoshda bolalar xuddi shunday ifodalaydi. S. N. Karpovaning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolada gap tarkibidan barcha turdagi so'zlarni ajratib olish ko'nikmasini shakllantirish mumkin. Buning uchun ularga so'zlarning mezonlarini, ya'ni so'z tovushlarining majmuasidan iboratligini, so'z doim muayyan mazmunga egaligini anglashi lozim. Albatta buning uchun bolaning yoshiga mos keluvchi usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shunday qilinganday qilinganda, yoshidan qat'iy nazar bolalarda so'z haqida adektiv va anglangan tasavvurlar paydo bo'ladi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni yuksak g'oyaviylik ruhida tarbiyalash ularning ongiga xalq, millat, yurt, jamiyat manfaatlaridan yuqoriroq manfaat bo'lishi mumkin emasligini singdirishi, ularni vatanga, xalqqa muhabbat ruhida va sadoqatli qilib tarbiyalash demakdir. Bunda esa albatta tarbiyachining o'zni beqiyos va muhimdir. Shunday qilib aytganda nutq maktabgacha yoshdagi bolalarning taraqqiy etishlarida katta o'rin tutadi. Shuning uchun ham maktabgacha yoshdagi bolaning nutqini o'stirishda atrofdagi insonlarning shuningdek tarbiyachilarning nutq madaniyati rivojlangan bo'lishi muhim sanaladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning eng muhim xususiyati nutqning rivojlanganligi hisoblanadi. Tarbiyachi tomonidan nutq o'stirish to'g'ri rejalashtirib boriladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. I.A. Karimov. Barkamol avlod orzusi. – T.: «O'zbekiston» – 2000.
2. Babayeva D. R. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. - Toshkent, 2018. - 334 b.
3. Nishonova Z., Alimova G. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi. - T.: "O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi", 2006. - B. 68
4. Qodirova F. R., Toshpo'latova Sh.Q., Qayumova N. M., A'zamova M. N. Maktabgacha pedagogika. - T.: "Tafakkur", 2019. - B. 107.



5. Zokirova, S. M. (2016). About the congruent phenomenon in the contrastive linguistics. *Sciences of Europe*, (8–2 (8))
6. Зокирова С. М. Контрастный анализ синтаксических слойных установок. *Вестник Наманганского государственного университета: Vol, 1 (8), 48.*

### References

1. I.A. Karimov. The dream of a harmoniously developed generation. - Т.: "Uzbekistan" - 2000.
2. Babayeva DR Theory and methods of speech development. - Tashkent, 2018. - 334 p.
3. Nishonova Z., Alimova G. Child psychology and its teaching methods. - Т.: "Literary Fund of the Writers' Union of Uzbekistan", 2006. - P. 68
4. Kadyrova F. R., Toshpolatova Sh.Q., Qayumova N. M., Azamova M. N. Preschool pedagogy. - Т.: "Tafakkur", 2019. - P. 107.
5. Zokirova, S. M. (2016). About the congruent phenomenon in the contrastive linguistics. *Sciences of Europe*, (8–2 (8)).
6. Zokirova S. M. Contrast analysis of syntactic sloynyx ustanovok. *Bulletin of Namangan State University: Vol, 1 (8), 48*